

## O'ZBEKISTONDA AHOLINING EHTIYOJMAND QATLAMLARIGA IJTIMOIY XIZMAT KO'RSATISHDA IJTIMOIY XODIMLAR FAOLIYATINI TAKOMILASHTIRISH ASOSIY YO'NALISHLARI.

*Yunusova Nozliya To'liqin qizi*  
*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

### **Annotatsiya**

Maqolada jamiyatimizdagi turli hayot tarzini boshidan kechiryotgan insonlarga, mutlaqo ijtimoiy ehtiyojga muhtoj bo'lganlarga qanday ijtimoiy xizmatlar oloib borilishi haqida hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi qisqa muddatli choratadbirlarga emas, balki insonlarni taqdir taqozosi bilan tushib qolgan qiyin vaziyatdan olib chiqish va tinch-osuda hIjtimoiy ish aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga mazkur qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va rehabilitatsiya qilish vositasida yordam beradi. Patronaj, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni diagnostika qilish, nazorat qilish va rehabilitatsiya qilishga yo'naltirilgan huquqbuzarlarni tuzatish va ularni nazorat qilish faoliyati hisoblanadiyotga qaytarish uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozimligiga qaratiladi. Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish ostida keng ma'noda jamiyatda yangi ijtimoiy institutni shakllantirish jarayonini tushunish lozim. Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish jamiyatni isloh qilish, insonparvarlik an'analarini saqlash, ma'naviyatni tiklashga asoslangan. Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish – demokratik rivojlanish, uni qayta qurish, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish, jamiki aholining ijtimoiy salomatligini qayta tiklashning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** volontyorlar, protezlash, profilaktika, intervensiya.

**Kirish:** Mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida davlatning ustuvor vazifasi jamiyatdagi har bir insonga munosib hayotni ta'minlashdan iborat. Oxirgi o'n yilliklarda vujudga kelgan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kontekstida ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlashning amaliy zarurati tadqiqotchilarni ijtimoiy hayotning ming yillar davomida to'plangan ijtimoiy yordam usullariga murojaat qilishga majbur qilmoqda. Ijtimoiy ishning eng muhim elementi uning qonuniyatlari hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy ishning fan sifatida qurish va bayon qilishning umum qabul qilingan me'yorlari mavjud emas, uning ilmiy apparati ham shakllanish va

rasmiylashtirish jarayonida turibdi. Biroq bugungi kundayoq aytish mumkinki, ushbu fan ijtimoiy ishdagi hodisalar va jarayonlarning mohiyatlari o'rtasidagi ob'ektiv jihatdan bog'liq bo'lgan, mustahkam, takrorlanuvchi bog'liklarni

ifodalovchi qonuniyatlarni tadqiq etadi. Ijtimoiy ish metodologiyasi ijtimoiy ish tuzilmasini, uning mijoz va ijtimoiy xodimning o'zi ham ishtirok etuvchi ob'ekti va predmetini, Shuningdek, ijtimoiy xodim va mijoz doirasida sodir bo'luvchi ijtimoiy kontekstni taqozo qiladi. Ijtimoiy ish metodologiyasining maqsadi ijtimoiy salomatlikni qayta tiklash, maqomning barqarorligi, imkoniyatlar va manbalarning namoyon bo'lish sharoitlarining o'zgarishi, mijozning o'z-o'zini nazorat qilish darajasini oshirish, muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati, shaxsiy qadr-qimmat va o'z-o'zini hurmat qilish hissiyotlarini qayta tiklashdan iborat. Ijtimoiy ish o'quv fani sifatida ta'lim muassasining ixtisosligiga nisbatan fanlar asosining o'quv maqsadlarini tizimli ravishda bayon qilinishini aks ettiradi. Ijtimoiy ish sohasida ta'lim olayotganlar ularga muhtojlar va jamiyat o'rtasidagi vositachilikni ta'minlash imkonini beruvchi turli nazariy bilimlar va texnologiyalarni o'zlashtiradilar. Ijtimoiy ish kasbining Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasida (IFSW) qabul qilingan global ta'rifiga ko'ra, ijtimoiy ish, ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar va tub xalqlar bilimlari asosidagi ijtimoiy ish odamlar va tuzilmalarni ularning hayotiy muammolarini hal etish va farovonligini oshirish maqsadida o'ziga jalb qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:** O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, har bir sohada o'ziga xos o'zgarishlar va yangiliklar amalga oshirildi. Xususan, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hamda ijtimoiy sohalarda ko'plab islohotlar qilindi. Ushbu maqolada ishda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning o'ziga xos jihatlari o'rgangan holda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning muammo va istiqbollari o'rganildi.

2023-yil 15-oktyabrdan boshlab talabgorlarni o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi yoki yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish yoki bekor qilish, shuningdek, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritish (undan chiqarish) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining qaroriga asosan amalga oshirilib kelinmoqda. Shuningdek, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari direktorlariga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini Agentlik huzuridagi uy-joy fondiga ega bo'lgan muassasalarga olti oy muddatgacha vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish huquqi berildi.

Bugungi kunda agentlik hamda uning hududiy bo'linmalari tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar bilan ishlash bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy ish mijozlari bo'lgan insonlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrashini oldini olmoqda.

Ijtimoiy ish tushunchasiga jamiyatshunos olimlar, sotsiologlar turli xil ta'rif bergan. Jumladan, Ch.Zastrov "Ijtimoiy ish odamlarga, oilalarga, guruhlar va jamiyatlarga ularning shaxsiy, shaxslalararo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini ularning hayot faoliyati sharoitlarini yaxshilash hisobiga oshirishda

yordam ko'rsatish jarayonida odamlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan"- deb ta'rif bergan.

jamiyatlarga ularning shaxsiy, shaxslalararo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini ularning hayot faoliyati sharoitlarini yaxshilash hisobiga oshirishda yordam ko'rsatish jarayonida odamlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan"- deb ta'rif bergan.

G'arb mamlakatlarining jamoatchilik ongida muxtojlariga yordam ko'rsatish faoliyatining kasbiy salohiyatini oshirish goyasi tobora ko'proq anglanilib bordi U1899- yilda ijtimoiy ishchilarni tayyorlash bo'yicha institutga asos solgan Amsterdamdagi ijtimoiy reformatorlar gruxiga tegishli bo'lgan ijtimoiy ishchilarni tayyorlash bo'yicha dunyodagi birinchi institutning barpo etilishi g'oyasi XIXasrning oxirlariga borib amalga oshirila boshlandi. Institut dasturi to'liq ikki yilga mo'ljallangan kursdan iborat bo'lgan. Ushbu dastur keyinchalik ijtimoiy ish deb nom olgan faoliyat sohaga o'zini baxshida qilgan ayol va erkaklar taxsil olishi nazarda tutilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Metodologiya jihatdan O'zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda, har yili u yoki bu ijtimoiy shior ostida o'tadi, ijtimoiy himoya yoki aholining biror kategoriyasi yili deb e'lon qilinadi. Davlat raxbarlari mavzu aktivlashtirib, ijtimoiy himoya siyosatini hayotimizda maqsadga muvofiq holda o'tkazib, har bir yilni ajratishadi. "Inson manfaatlar yili", "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili".

2004-yilda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim bo'g'in hisoblanadi. Markaz faoliyati bolalarning barcha zaif guruhlari, ya'ni ota-onalar g'amho'rligidan ayrilgan bolalar, nogiron bolalar, qonunni buzgan bolalar, shafqatsiz va beparvo muomalaga duchor bo'lgan bolalarga yashash va kamolotga erishish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan. Mazkur faoliyat davlat, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar ishtirokida amalga oshiriladigan davlat loyihalari, shuningdek, bolalar va ota-onalarga xizmat ko'rsatish orqali to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Markaz bolalarni himoya qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, bolalar va oilalarga ko'rsatiladigan xizmatlar tartib-taoimilini hamda sifatini sezilarli darajada ko'tarish, bolalar muassalarining kadrlar saloxiyatini oshirish imkonini beradigan bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

<sup>1</sup> [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-ijtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida\\_39301](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-ijtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida_39301)

- Bolalar manfaatlarini ta'minlashda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish va ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritish yuzasidan taklif berish;

- Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimni har xil subyektlari faoliyati muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlash, amalga oshirilayotgan islohotlar monitoringini olib berish;

- Bolalar manfaatlarini ta'minlash himoya qilish va ularni kamolotga yetkazish sohasida zamonaviy yondashuvlar, yo'nalishlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish maqsadida ilmiy-metodik bazani shakllantirish;

- Bolalar muassalari mutaxassislarini bolalar bilan ishlashning yangi metodlari va yondashuvlariga o'qitish hamda oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash funksiyalari;

- Yangi ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish orqali bolalarga va oilalarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish.

Ijtimoiy menejment funksiyalarini bajargan holda, Respublika bollar ijtimoiy moslashuv markazi o'z faoliyati bilan ijtimoiy hamkorlikning uch darajasini qamrab oladi. Bular: bolalarga va oilalarga to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rsatish darajasi, ijtimoiy ximoya qilish tizimini global o'zgaritirish bo'yicha vazirliklar va idoralar bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutuvchi ijtimoiy menejment makrodarajasi.

Ijtimoiy ishda ijtimoiy xodimining fazilatlarini juda muhimdir, bular unga ijtimoiy xizmatlar mijozlari bilan qulay aloqalar o'rnatishga va ijtimoiy xizmat iste'molchilari bilan ularning muammolari to'liq xal etilgunga emdatiyali munosabatlarni tutib turishlari, o'z professional vazifalarini bajarishdai katta kuvonch olishga imkon beradi. Kishilar bilan ishlashga moyillik professionial iste'dodda muhim o'rin egallaydi. Professioniyaal iste'dod komponentlari tizimida konkret ijtimoiy xodim uchun o'z qobiliyatini amalga oshirish imkoniyati ham katta rol o'ynaydi. Bugun ijtimoiy xodimga yuklatilgan ko'plab vazifalarni ham ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy xodim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- mehnatni muhofaza qilish talablariga mos keladigan ish joyiga ega bo'lish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishda nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- ijtimoiy xizmat ko'rsatishda boshqa davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar, volontyorlar va ijtimoiy sohaga oid boshqa guruhlar bilan hamkorlik qilish;

- "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi faoliyatini va ish uslublarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritishi;

- mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritishi;

- Bevosita yoki “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbariyati nomidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni axborot tizimidan foydalangan holda vakolatli organlardan so‘rash va olishi;
- “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi va boshqa axborot tizimlardan foydalanishi;
- Mahalladagi ijtimoiy holatni yaxshilash bo‘yicha mahalla raisi bilan birgalikda tuman hokimligiga takliflar kiritish;
- aholi o‘rtasida ijtimoiy profilaktika va moslashtirish ishlarida hamkorlik qilish, tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda ishtirok etish kabi bir qator huquqlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy xodim:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning yoshi, jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, iqtisodiy mavqeyi, madaniyati, nogironligi mavjudligi, diniy farqlarini hurmat qilish va kamsitishning har qanday shakliga qarshi turish;
- ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning shaxsiy axboroti maxfiyligini ta’minlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish;
- vakolati doirasida ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish;
- “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy xodimlar guruhlarining odob-axloq qoidalari bilan tanishish;
- “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy xodimlar guruhlarining odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilish;
- mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomalari shartlariga hamda ichki mehnat tartib qoidalariga rioya etish;
- “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbariyatining o‘z faoliyatiga oid qabul qilingan qaror va buyruqlar bilan tanishish hamda ularni rioya qilish va ijro qilish;
- insonlarning hayoti va sog‘lig‘iga, ish beruvchining mol-mulki (shu jumladan uchinchi shaxslarning ish beruvchida bo‘lgan mol-mulkiga, agar ish beruvchi ushbu mol-mulkning but saqlanishi uchun javobgar bo‘lsa) but saqlanishiga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelganligi to‘g‘risida bevosita rahbar yoki vakolatli davlat organlariga darhol xabar qilish;
- ijtimoiy xizmat foydalanuvchilarining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning bu boradagi xabardorligini oshirish;
- o‘z faoliyati davomida va undan tashqarida shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;
- faoliyatiga doir hisobotlar, axborotlar va hujjatlarni (hujjatlar, hisobotlar, bayonnomalar va hokazolar) tuzish, to‘ldirish hamda rahbariyatga taqdim qilish; ish beruvchining mol-mulkiga (shu jumladan uchinchi shaxslarning ish beruvchida turgan

mol-mulkiga, agar ish beruvchi ushbu mol-mulkning but saqlanishi uchun javobgar bo'lsa) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- Ijtimoiy xodim zimmasiga yuklatilgan vazifalar bo'yicha tartibga solinadigan qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan, shu jumladan keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish;
- Manfaatlarni to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, beg'araz va xolis bo'lish;
- mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalarga rioya qilish;
- ijro intizomiga rioya qilish, o'z kasbiy mahorati va malakasini tizimli rivojlantirib borish uchun majburdir.

Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YAIMGa nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Xususan, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda.

Konstitutsiyada e'lon qilingan ijtimoiy davlat tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida quyidagilar davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi Xususan, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda<sup>2</sup>

**Tahlil va natijalar:** 1991- yilda mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatni yagona butunjahon maydonga olib kirish va bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida iqtisodiy islohlarni amalga oshirish yo'nalishi e'lon

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4856349>

qilindi. Bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida davlatning ijtimoiy siyosatidagi asosiy strategik maqsadlari avvalambor, oilaning, har bir muayyan insonning hayot darajasi va farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalish ijtimoiy siyosatning o'tish davridagi mohiyatini, amalga oshirilayotgan islohotlarning kelgusidagi strategiyasini ifodalaydi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq davlat aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etim-bolalar, nogironlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning real iqtisodiy vaziyat, mavjud manbalar va imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda yangi mexanizmi yaratildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat mexanizmining eng muhim yo'nalishlari orasida quyidagilar mavjud: fuqarolarning O'zbekiston. Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda kafolatlangan barcha huquqlariga amal qilishni ta'minlovchi me'yoriy va institutsional bazani shakllantirish; aholining "ijtimoiy o'z-o'zini himoya qilish" imkoniyatlarini faollashtirishning amaliy mexanizmalri va sharoitlarini yaratish, aholining alohida qatlamlarini manzilli himoya qilish maqsadida me'yoriy, institutsional va manbali asoslarini ishlab chiqish va h.k. Mazkur siyosatni amalga oshirishda turli ijtimoiy tizimlar ishtirok etadi: ijtimoiy sug'urta, ishsizlarni qo'llab-quvvatlash, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish, fuqarolarning alohida toifalari uchun imtiyozlar taqdim qilish va ko'plab boshqalar. Birinchi ijtimoiy ishchilar keng sohadagi muammolar bilan shug'ullanishgan – immigrantrlarni ingliz tiliga o'rgatishdan tortib, industrial jamiyatda ish joyiga ega bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni egallashgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanishgan. Ular ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etishga va shu bilan insonlarga o'z muammolarini samarali hal etishga yordam berishar edi<sup>3</sup>.

Jahon amaliyotida ijtimoiy soha xizmatchilari mahalliy, davlat va federal tashkilotlarda turli xil jabhalarda keng qamrovli faoliyat ko'rsatib, kishilar o'rtasida shakllanuvchi turli ijtimoiy muammolarning yechimini topishga va ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga kasbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Ijtimoiy xizmatchi aholining himoyasiz va ijtimoiy yordamga muhtoj muayyan qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunday aholi qatlamiga pensionerlar, yolg'iz keksalar, nogironlar, qochoqlar, sharoiti og'ir oilalardan chiqqan bolalar, yetim bolalar, farzandlikka asrab olingan va ota-onaligidan voz kechilgan bolalar, ishga joylashishda qiyinchilikka uchraganlar, ishlab chiqarishda jarohat olganlar va boshqalar kiradi. Ijtimoiy ish kasbi egasining maqsadi o'zi shug'ullanayotgan fuqarolarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashdan iborat. Ijtimoiy ish kasbi egasi aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashi, maishiy sharoitlarini kuzatishi, maslahat berishi, suhbatlar

<sup>3</sup> Ganiyeva Ma'rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma'ruf Boltayevich. Ижтимоий ишга кириш. Дарслик Тошкент: 2020, - 250 б.

o'tkazishi, ijtimoiy muammoga aralashuv darajasi va xarakterini aniqlashi, ijtimoiy tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirishi, oziq-ovqat, dori-darmon, kundalik talab etiladigan tovarlar xaridini ishlab chiqishi, zarur hollarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi, imtiyozlarni belgilanishi va qo'llanilishiga erishishi kerak. Ijtimoiy ish kasbining egasi ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ta'minot markazlarida, ijtimoiy himoya qo'mitalarida, ta'lim muassasalarida, qariyalar va bolalar uylarida, vasiylik va homiylik tashkilotlarida, koloniyalarda, pensiya jamg'armasi filiallarida, ruhiy ko'mak ko'rsatuvchi muassasalarda faoliyat olib borishi mumkin.

Ijtimoiy xizmatchi quyidagi kasbiy ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi:

ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni, me'yor va nizomlarni bilishi;

fanlar (psixologiya, tibbiyot, ijtimoiy ish, iqtisodiyot va boshqa fanlar) majmuasini bilishi;

ijtimoiy-gumanitar sohadagi mavjud muammolar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;<sup>4</sup>

**Xulosa va takliflar:** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki, mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida davlatning ustuvor vazifasi jamiyatdagi har bir insonga munosib hayotni ta'minlashdan iborat. Oxirgi o'n yilliklarda vujudga kelgan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kontekstida ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlashning amaliy zarurati tadqiqotchilarni ijtimoiy hayotning ming yillar davomida to'plangan ijtimoiy yordam usullariga murojaat qilishga majbur qilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy ish sivilizatsiyalashgan jamiyatning hodisasiga aylanib borayotgani tobora ko'proq qabul qilinmoqda. Bizning fikrimizcha, u nihoyatda murakkab ko'p omilli, ko'p bosqichli va ko'p qatlamli tuzilishga ega. Ushbu tuzilmaning asosiy elementlari: amaliy faoliyat, o'quv intizomi, mutaxassisligi, kasbi, ijtimoiy siyosat sohasi, ijtimoiy institut va fan. Ijtimoiy ishning asosiy va funktsional xususiyati muhtojlarga yordam berish, qo'llab-quvvatlash va himoya qilishdan iborat bo'lgan faoliyatda ifodalanishi mumkin. Ushbu maqsadga erishish orqali muhtoj odamlarning yanada konstruktiv ijtimoiylashuvi amalga oshirilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Ijtimoiy ish tarixi, nazariyasi va uslubiyati" o'quv-uslubiy majmua, Toshkent-2013
2. <https://yuz.uz/uz/new> s/aholiga-ijtimoiy-xizmatlar-va-yordamlar-korsatish-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-tog'risida
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy\\_himoya](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_himoya)

<sup>4</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy\\_himoya](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_himoya)



4. Ganiyeva Ma'rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma'ruf Boltayevich. Ижтимоий ишга кириш. Дарслик Тошкент: 2020, - 250 б.
5. <https://lex.uz/docs/-4856349>
6. Дусманов.Ш, М.Б.Бекмурадов, Х.Хусанова “Ижтимоий иш тарихи, назарияси ва услубиёти” Тошкент-2012 47-б
7. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-ijtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida\\_39301](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-ijtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida_39301)